

## SARV (CUPRESSUS SEMPERVIRENS L.) O`SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

D.G'.Sodiqova

DTPI o'qituvchisi.

Daminova Feruza

Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10934648>

**Annotatsiya.** Hozirgi vaqtgacha ko'pgina olimlar tomonidan respublikamiz sharoitida manzarali o'simliklarning iqlimlashtirilishi va introduktsiyasi muammolari bo'yicha anchagina tadqiqotlar amalga oshirildi va o'zga hududlardan keltirilgan o'simliklarning turli introduktsiya sharoitlaridagi bioekologik xususiyatlari o'rganilib, O'zbekiston florasida yanada boyitib kelinmoqda. Ushbu maqolada Sarv (*Cupressus sempervirens* L.) o'simligining morfologiyasi va xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sarv, *Cupressus sempervirens*, *S. sempervirens*, arizona sarvisi, marosimli sarvi, Kaliforniya sarvisi.

## BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CYPRESS (CUPRESSUS SEMPERVIRENS L.) PLANT

**Abstract.** Until now, many scientists have carried out many studies on the problems of acclimatization and introduction of ornamental plants in the conditions of our republic, and the bioecological characteristics of plants brought from other regions under different conditions of introduction have been studied, and the flora of Uzbekistan is being further enriched. This article provides information on the morphology and characteristics of Cypress (*Cupressus sempervirens* L.) plant.

**Key words:** Cypress, *Cupressus sempervirens*, *S. sempervirens*, Arizona cypress, Ceremonial cypress, California cypress.

## БИОЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАСТЕНИЯ КИПАРИСОВИКА (CUPRESSUS SEMPERVIRENS L.)

**Аннотация.** К настоящему времени многими учеными проведено множество исследований по проблемам акклиматизации и интродукции декоративных растений в условиях нашей республики, изучены биоэкологические особенности растений, привезенных из других регионов в различных условиях интродукции, а также изучены биоэкологические особенности растений, привезенных из других регионов в различных условиях интродукции. флора Узбекистана еще больше обогатилась. В статье представлены сведения о морфологии и характеристиках растения кипарисовика (*Cupressus sempervirens* L.).

**Ключевые слова:** Кипарисовик, *Cupressus sempervirens*, *S. sempervirens*, кипарисовик аризонский, кипарис церемониальный, кипарис калифорнийский.

Atrof muxitni ximoya qilish, o'simlik resurslaridan oqilona foydalanish, shaharlar va boshqa aholi yashaydigan manzallarni ko'kalamzorlashtirishda hamisha bashariyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lgan va shunday bo'ib kelmoqda.

Manzarali o'simliklar insonga yaxshi kayfiyat va ko'tarinki ruh bag'ishlashidan tashqari, atrof muhit havosini tozalashda, shovqinni va yozning jazirasida xaroratni pasaytirishda, uni namlab turishda boshqa vositalar bilan almashtirib bo'lmaydigan darajada katta ahamiyatga ega.

Regiondagi shaxarlarni ko'kalamzorlashtirishda ishlatilayotgan daraxt va butalar assortimenti kamligidan tashqari, o'z vaqtida bu yerda juda keng qo'llaniladigan chinor va qayrag'och singari daraxtlar og'ir ekologik sharoit ta'sirida 15-20 yilda qarib va kasallikka chalilib yaroqsiz xolga kelib qolmoqda.

Bu esa manzaralilik xususiyatlari yuqori bo'lgan, ekib o'stirishda qiyinchilik tug'dirmaydigan va tez o'sishi tufayli qisqa muddatda natija ko'rsatadigan yangi daraxtlarni joriy qilishni talab qilmoqda. Shunday daraxtlar jumlasiga *Cupressus sempervirens* L. (Sarvi) kiradi.

Sarv- sarvdoshlar oilasiga mansub igna bargli o'simliklar turkumi, bir uyli, doim yashil manzarali daraxt va butalar. Yevrosiyo, Shimoliy Amerika, Shimoliy Afrika, Janubiy Sharqiy Osiyoning subtropik mintaqalarida 15 turi tarqalgan. Qrim, Kavkaz va O'rta Osiyoda 11 turi manzarali daraxt sifatida o'stiriladi. Bo'yi 30 m dan ortiq, tanasining diametri 50-60 sm, 200-300-yil, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 2000-yilgacha yashaydi. Urug' kurtagi ko'p. To'pguli 2-yili yetiladi. Ignabarglari yashil yoki havorang. Po'stlog'i qalin, qoramtirqo'ng'ir.

MDH da Qrim, Kavkazda manzarali o'simlik sifatida keng ekiladi. Bo'yi 30 metr, tana diametri 50-60 sm ga yetadi. 4-6 yoshida urug' beradi. 1000-1500 yilgacha yashaydi, yog'ochi sifatli mebel tayyorlashda ishlatiladi.

Ko'proq doim yashil Sarv turining piramidasimon (*S. sempervirens*) xili ko'p ekiladi.

Manzarali bog'dorchilikda ekiladigan xillari kup. Urug'idan, manzarali xillari qalamchasidan va payvand qilib ko'paytiriladi. Ignabarglari va novdalaridan tibbiyotda qo'llaniladigan efir moyi olinadi. Sarv turlaridan ihota o'rmonlar, istirohat bog'lari barpo etishda foydalaniladi.

Yog'ochi mebel sanoatida ishlatiladi. Chiroyli shaklda o'sishi tufayli Sharq she'riyatida majoziy ma'noda sarvqomat yor obrazini tasvirlashda ko'p qo'llanilgan.

Toshkentga sarv turlarini introduksiya qilish faqatgina uchta turni: arizona sarvisi (*Cupressus arizonica* Greene.) marosimli sarvni (*Cupressus funebris* L.) va Kaliforniya sarvisini (*Cupressus Goveniana* Gord) sovuqqa chidamli ekanini ko'rsatdi.

Arizona sarvisi (*Cupressus arizonica* Greene.) bo'yi 20-25 metr, bir uyli, shox-shabbasi keng konussimon shaklga ega. Asosan Arizona tog'larida, Kaliforniyada va Shimoliy Meksikada tog'larning 1500-2400 metr dengiz satxidan balandliklarida o'sadi. 5-6 yoshida ilk gullash qayd etiladi.

Sarv turlari O'zbekistonning janubiy xududlarida o'rmon xo'jaligi va ko'kalamzorlashtirish uchun muxim ahamiyatga ega. Ayniqsa Arizona sarvisi O'zbekistonda ko'kalamzrashtirish uchun istiqbolli tur xisoblanadi. Sarvning doim yashil sarv (*Cupressus sempervirens*), yirik mevali sarv (*Cupressus macrocarpa*),

Duklo sarvi (*Cupressus duclouxiana*), Kaliforniya sarvi (*Cupressus goveniana*), Himolay sarvi (*Cupressus torulosa*), yalong'och sarv (*Cupressus glabra*) kabi turlari mavjud va ular o'rmon xo'jaligida muxim ahamiyatga ega.

#### REFERENCES

1. А.Л. Систематика и филогения цветковых растений. – М.- Л.: Наука, 1966. – 611 с.
2. Тухтаев Б.Е. Интродукция лекарственных растений на засоленных землях Узбекистана: Автореф. дис. ... докт. биол. наук. – Ташкент, 2009. – 38 с
3. L.H. Yoziyev, Sh.A. Samatova. Manzarali o'simliklar / Darslik / Qarshi: —"Sharq" nashriyoti, 2023. – 335 b.